



## XALQARO MOLIYA-KREDIT INSTITUTLARI BILAN HAMKORLIKNING IQTISODIY MEXANIZMLARI VA DASTAKLARI

**Qosimov Bobur**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

ORCID: 0009-0006-8238-1098

[boburkosimov0@gmail.com](mailto:boburkosimov0@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada xalqaro moliya-kredit institutlari bilan hamkorlikning iqtisodiy mazmuni, shakllari va zamonaviy mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida xalqaro moliya institutlari bilan aloqalarni yanada rivojlantirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** xalqaro moliya-kredit institutlari, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki.

## ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ И РЫЧАГИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ ФИНАНСОВО-КРЕДИТНЫМИ ИНСТИТУТАМИ

**Қосимов Бобур**

*Денауский институт предпринимательства и педагогики*

**Аннотация.** В статье анализируются экономическое содержание, формы и современные механизмы сотрудничества с международными финансово-кредитными институтами. Также разработаны предложения и рекомендации по дальнейшему развитию отношений с международными финансовыми институтами и повышению экономической эффективности в условиях Узбекистана.

**Ключевые слова:** международные финансовые и кредитные институты, Всемирный банк, Международный валютный фонд, Азиатский банк развития, Исламский банк развития.

## ECONOMIC MECHANISMS AND LEVERS OF COOPERATION WITH INTERNATIONAL FINANCIAL AND CREDIT INSTITUTIONS

**Kasimov Bobur**

*Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy*

**Abstract.** The article analyzes the economic content, forms and modern mechanisms of cooperation with international financial and credit institutions. Also, proposals and recommendations have been developed for the further development of relations with international financial institutions and increasing economic efficiency in the conditions of Uzbekistan.

**Keywords:** international financial and credit institutions, World Bank, International Monetary Fund, Asian Development Bank, Islamic Development Bank.

### Kirish.

Bugungi globallashuv sharoitida xalqaro moliya-kredit institutlari bilan samarali hamkorlik yuritish har bir rivojlanayotgan mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki kabi yirik moliyaviy institutlar nafaqat moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi, balki institutsional islohotlarni jadallashtirish, texnik ko'mak va investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha kompleks yondashuvlarni ham taklif etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilgani kuzatilmoqda. Shu bilan birga, bu jarayonda iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy barqarorlik va davlat manfaatlarini uyg'unlashtirgan holda ishlaydigan mexanizmlarni ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda.

Xalqaro moliya-kredit institutlari bilan hamkorlik qilishda nafaqat tashqi moliyaviy manbalarni jalb etish, balki bu resurslardan oqilona foydalanish, milliy iqtisodiyot ehtiyojlariga mos mexanizmlarni shakllantirish, iqtisodiy tizimga barqarorlik va innovatsion dinamika olib kirish kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot ushbu sohadagi iqtisodiy mexanizmlar va moliyaviy dastaklarni tahlil qilish, mavjud imkoniyatlar va muammolarni aniqlash hamda O'zbekiston sharoitida ularni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

### Adabiyotlar sharhi.

Xalqaro moliya-kredit institutlari (XMKI) bilan hamkorlik masalasi ko'plab xorijiy tadqiqotchilar tomonidan turli nuqtai nazardan chuqur tahlil etilgan. Asosiy ilmiy izlanishlar XMKI'larning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, makroiqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash va institutsional rivojlanishni rag'batlantirishdagi rolini yoritishga qaratilgan.

Xalqaro moliya institutlari, xususan Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasining iqtisodiy siyosatga ta'sirini o'rganishda Rodrik (2006) o'z tadqiqotida ushbu institutlarning dastlabki yondashuvi asosan fiskal barqarorlik, inflyatsiyani pasaytirish va davlat xarajatlarini qisqartirishga qaratilganini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Stiglitz (2004) o'z asarlarida xalqaro moliya institutlarining moliyaviy yordam ko'rsatishdagi shart-sharoitlari ba'zan milliy iqtisodiyotlar uchun mos kelmasligini tanqidiy tahlil qiladi. U, ayniqsa, strukturaviy moslashuv dasturlarining rivojlanayotgan mamlakatlardagi ijtimoiy va iqtisodiy muvozanatga ta'sirini keskin baholaydi.

Dreher (2006) tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlarda esa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik mamlakat ichidagi institutsional sifatga kuchli darajada bog'liq ekanini isbotlangan.

Kahler (2002) esa XMKI'larning "shartlilik" (conditionality) siyosatini iqtisodiy suverenitetka potensial tahdid deb hisoblaydi. U ko'plab holatlarda XMKI tomonidan ilgari surilgan islohotlar to'g'ridan-to'g'ri transmilliy kompaniyalar manfaatlarini ko'zlayotganini va bu holat mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun salbiy oqibatlar tug'dirganini bildiradi.

Biroq, boshqa olimlar, xususan, Kanbur va Sandler (1999) kabi tadqiqotchilar xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikning ijobiy jihatlarini ko'rsatadi. Ular XMKI orqali amalga oshirilayotgan infratuzilmaviy loyihalar, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalaridagi grantlar yordamida uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkinligini ta'kidlaydi.

Mullaxonov (2020) o'z tadqiqotida XMKI bilan hamkorlikda iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirishda davlat strategik yondashuvni qo'llashi zarurligini qayd.

Abduraxmonov va Rahimovlar (2022) o'z ilmiy izlanishlarida xalqaro moliya-kredit institutlaridan foydalanish mexanizmlari samaradorligi bevosita milliy iqtisodiy siyosat, institutsional muhit va korrupsiya darajasi bilan bog'liq ekanini ko'rsatadilar.

Shuningdek, Ubaydullayev (2023) xalqaro moliya institutlarining texnik ko'mak dasturlari orqali moliyaviy ko'makdan tashqari bilim almashinuvi, institutsional salohiyatni

oshirish va strategik rejalashtirish tizimini joriy etishda XMKI muhim dastak bo'layotganini tahlil qiladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, statistik guruhlash, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Xalqaro valyuta-kredit va moliya munosabatlarining tashkiliy tuzilmasi o'ziga ko'plab xalqaro tashkilotlarni qamrab oladi. Ulardan ba'zilari ko'pgina vakolatlariga hamda yuqori miqdordagi moliyaviy resurslarga ega bo'lgan holda xalqaro valyuta-kredit va moliya munosabatlarini tartibga solishda ishtirok etadi.

Boshqalari esa, hukumatlararo muhokama etish uchun forumlar tashkil etish hamda valyuta-kredit va moliya siyosati bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Xalqaro moliya tashkilotlarining vujudga kelishiga va faoliyatining rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan:

- xo'jalik hayoti baynalminallashuvining kuchayishi, shuningdek, milliy chegaralardan tashqariga chiquvchi trans milliy korporatsiyalar va trans milliy banklarning tashkil topishi;

- jahon xo'jaligida moliyaviy munosabatlarni xalqaro tartibga solishga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi;

- jahon valyuta tizimi, xalqaro valyuta-kredit, qimmatbaho qog'ozlar va oltin bozorlaridagi yuzaga keladigan muammolarni hamkorlikda hal qilish zaruriyatining ortib borishi.

Xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlari tomonidan bajariladigan asosiy funksiyalarga quyidagilar kiradi:

1. Axborot funksiyasi. Xalqaro moliya tashkilotlari jahon xo'jaligi rivojlanishining umumiy tendensiyalari hamda biror bir davlatning iqtisodiy holati to'g'risida ma'lumotlar olish mumkin bo'lgan axborot markazi rolini oshirish.

Xalqaro valyuta-kredit tashkilotlari o'tkazilgan xalqaro, yig'ilishlar, tadqiqotlar natijalari bo'yicha statistikalarini nashr etirib borish zarur.

2. Maslahatchi funksiyasi. Xalqaro moliya tashkilotlari mamlakatlarning hukumatlariga valyuta-kredit va moliya siyosatini o'tkazish bo'yicha maslahatlar berib boradi.

3. Tartibga solish funksiyasi. Xalqaro moliya tashkilotlari xalqaro moliya munosabatlarini tartibga solish funksiyasini ham bajaradi.

Jumladan, XVf to'lov qilishda muammolarga ega bo'lmagan mamlakatlarga vaqtinchalik moliyaviy yordam ko'rsatadi.

4. Bashorat qilish funksiyasi. Xalqaro moliya tashkilotlari milliy va jahon iqtisodiyoti rivojlanishining bashoratini amalga oshiradi. Xalqaro moliya tashkilotlari universallik darajasi va maqsadlari jahon ahamiyatiga ega bo'lgan, mintaqaviy, shuningdek, jahon xo'jaligining ma'lum bir sohasini qamrab oluvchi ajratiladi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy shakllarini tartibga soluvchi xalqaro tashkilotlarni tashkil etish g'oyasi 1929-1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi ta'siri natijasida yuzaga keldi.

Xalqaro moliya tashkilotlari jahon iqtisodiyotini rivojlantirish olmasligidagi muayyan masalalarni hal etish uchun a'zo mamlakatlarning moliyaviy resurslarini birlashtirish orqali tashkil etiladi.

Ushbu masalalar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- xalqaro savdoni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash, jahoni "iqtisodiyotini tartibga solish hamda barqarorlashtirish maqsadida xalqaro valyuta va fond bozoridagi operatsiyalar;

- byudjet taqchilligini moliyalashtirish va davlat loyihalarini amalga oshirishga kreditlar

- xalqaro loyihalar (loyihada to'g'ridan-to'g'ri, shuningdek, tijorat tashkiloti orqali ishtirok etuvchi bir nechta mamlakatlar manfaatlariga daxldor bo'lmagan loyihalar) sohasidagi kreditlash va investitsiya faoliyati;

- xalqaro biznesga ijobiy ta'sir ko'rsatishga (masalan, infratuzilma loyihalari, informatsion texnologiyalar sohasidagi loyihalar, transport va kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish va boshq.) ichki loyihalar (bitta mamlakatning yoki rezidentning tijorat tashkiloti manfaatlariga bevosita daxldor bo'lgan loyihalar) sohasidagi kreditlash va investitsiya faoliyati;

- fundamental ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish va xayriya faoliyati (xalqaro yordam dasturlarini moliyalashtirish).

Xalqaro moliya tashkilotlari quyidagi maqsadlarni ko'zlagan holda faoliyat yuritadi:

- jahon iqtisodiyoti va xalqaro moliyani barqarorlashtirish maqsadida jahon hamjamiyatida harakatlarni birlashtirish;

- valyuta va moliya-kredit munosabatlarini xalqaro tartibga solishni amalga oshirish;

- jahon valyuta va moliya-kredit siyosatining strategiya va taktikasini hamkorlikda ishlab chiqish va muvofiqlashtirish. Xalqaro moliya tashkilotlarida qatnashish darajasi va alohida mamlakatlarning ta'siri ularning kapitaldagi miqdori bilan aniqlanadi.

Shunday ekan, xalqaro moliya tashkilotlarining investitsion faoliyati ko'p hollarda yirik xalqaro loyihalar bo'yicha risklarni boshqarish va sug'urtalashni amalga oshiruvchi davlat tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikni talab etadi.

XMKI bilan samarali hamkorlikning asosiy iqtisodiy mexanizmlari bu rasmiy byudjet yordami, loyiha moliyalash tizimi, texnik ko'mak va grant shaklidagi dastaklardir.

Ushbu mexanizmlar orqali O'zbekiston iqtisodiyotining real sektori, transport-logistika tizimi, energetika va qishloq xo'jaligi sohalarida salmoqli natijalarga erishilmoqda.

Biroq, ayrim loyihalarda iqtisodiy samaradorlik yetarlicha tahlil qilinmagani, qaytarilish mexanizmlarining sustligi va qarzni boshqarishdagi institutsional muammolar hali-hanuz mavjud (1-jadval).

1-jadval

**Xalqaro moliya-kredit institutlari bilan hamkorlikning samarasi  
(2020-2024 yillar)**

| No | Ko'rsatkich               | Natija                      |
|----|---------------------------|-----------------------------|
| 1  | Jalb qilingan sarmoya     | 12 mlrd \$ (5 yil ichida)   |
| 2  | Qurilgan yo'llar          | 1500 km                     |
| 3  | Quyosh energiyasi quvvati | 500MVt                      |
| 4  | Quyosh energiyasi quvvati | 3 million kishi foydalanadi |
| 5  | Ko'rsatkich               | Natija                      |

*Manba: O'zbekiston respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumoti asosida muallif ishlanmasi.*

1-jadvalda 2020-2024 yillarda jalb qilingan sarmoya 12 mlrd \$ (5 yil ichida) XMKI (Xalqaro Moliyaviy-Kredit Instituti) O'zbekiston iqtisodiyotining turli sohalarida, jumladan, bank, qurilish, transport, energetika, agrosanoat va boshqa tarmoqlarda faol hamkorlik qilmoqda. Ushbu tahlilda XMKI hamkorligining O'zbekistondagi asosiy yo'nalishlari, investitsiyalar, loyihalar va ularning iqtisodiy ta'siri ko'rib chiqildi. XMKI bilan hamkorlik O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish va barqaror o'sishga erishish uchun asosiy mexanizm hisoblanadi.

Ushbu institutlar nafaqat moliyaviy resurslar, balki yangi texnologiyalar, ekspertiza va global tajribalarni ham olib keladi.

XMKI hamkorligi O'zbekistonning iqtisodiy islohotlarida muhim rol o'ynaydi.

Kelajakda quyidagi yo'nalishlarda hamkorlik kengaytiriladi:

- **yashil energiya loyihalari** (quyosh va shamol elektr stansiyalari);

- **aholining turar joy sharoitini yanada yaxshilash;**

- **xususiy sektorni rag'batlantirish.**

O'zbekiston 2017-yildan boshlab ochiq va diversifikatsiyalashgan iqtisodiy siyosatni amalga oshirib, Xalqaro Moliyaviy-Kredit Institutlari (XMKI) bilan faol hamkorlikni yo'lga

qo'ydi. Ushbu materialda O'zbekiston hukumati XMKI bilan qanday loyihalarni amalga oshirayotgani, moliyalashtirish mexanizmlari va natijalari tahlil qilindi.

Hamkorlikning barqaror va uzoq muddatli ijobiy natijalar berishi uchun iqtisodiy mexanizmlar puxta o'ylangan, shaffof va tahliliy asoslangan bo'lishi lozim. Shu yo'l bilan O'zbekiston nafaqat tashqi moliyaviy yordamga tayanadi, balki o'zining ichki resurslaridan samarali foydalangan holda iqtisodiy mustaqillik sari harakat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning XMKI bilan hamkorlik tashqi qarz o'sishi barqaror bo'lib, bu yondashuv kreditlarni uzoq muddatli, rasmiy manbalardan jalb qilishga asoslangan. Prognozlarga ko'ra, qarz sust o'sish tendensiyasini saqlab, 2029-yilga tashqi qarz 50–55 % darajasiga tushishiga umid mavjud.

### Xulosa va takliflar

Tahlillarimiz xalqaro moliya-kredit institutlari bilan hamkorlik O'zbekiston uchun katta iqtisodiy imkoniyatlar eshigini ochadi.

Biroq bu hamkorlik samarador bo'lishi uchun iqtisodiy mexanizmlar chuqur tahlil qilinishi, qarz yuki me'yorda saqlanishi, tanlab moliyalashtirish amaliyoti joriy qilinishi va aniq yechimlar ishlab chiqish amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir:

- davlat kafolatidagi qarz hajmi YaIMning 30 foizidan oshmasligi haqida qonunchilik asosida cheklov kiritilishi lozim;

- XMKI mablag'lari faqat iqtisodiy, ijtimoiy yoki ekologik jihatdan yuqori samaradorlikka ega loyihalarga yo'naltirilishi kerak;

- loyiha tanlashda mustaqil ekspert xulosalarini olish, mahalliy va xalqaro texnik ekspertizadan o'tkazish amaliyotini kengaytirish zarur;

- moliyaviy muassasalar, vazirlik va idoralar qoshida xalqaro moliya-kredit muassasalari bilan ishlash bo'yicha maxsus bo'linmalarni kuchaytirish, xalqaro standartlar asosida kadrlar tayyorlash muhim;

- ochiq ma'lumotlar bazasi va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini joriy etish tashqi qarz, loyihalar va ularning moliyalashtirish manbalari bo'yicha yagona ochiq axborot platformasi yaratish zarur.

XMKI bilan hamkorlik natijasida jalb qilingan kreditlar hajmi ortib, 2024-yil oxirida tashqi qarz miqdori 64,1 milliard AQSh dollariga yetdi. Bu jarayon iqtisodiy o'sish sur'atlari va byudjet intizomi bilan muvofiqlashtirilgani sababli hozircha yuqori xavf tug'dirmayapti.

Kreditlardan samarali foydalanish, ularni strategik yo'nalishlarga yo'naltirish va qarz yuki barqarorligini saqlab qolish bo'yicha muhim vazifalar dolzarb bo'lib qolmoqda.

### Adabiyotlar/Lumepamypa/References:

Dreher A. (2006) *IMF and Economic Growth: The Effects of Programs, Loans, and Compliance with Conditionality* // *World Development*. Vol. 34(5). P. 769–788.

Kahler M. (2002) *Conditionality and Governance* // *World Bank Research Observer*. Vol. 17(1). P. 89–104.

Kanbur R., Sandler T. (1999) *The Future of Development Assistance: Common Pools and International Public Goods* // *Global Public Goods*. – Oxford: Oxford University Press. – P. 62–85.

Абдурахмонов А.А., Рахимов М.М. (2022) Совершенствование механизмов привлечения и использования внешних заимствований в Узбекистане // *Экономика и инновационные технологии*. №1. С. 112–118.

Муллахонов М.Ў. (2020) *Международные финансовые институты и Узбекистан: перспективы сотрудничества* // *Финансовый вестник*. №6. С. 35–41.

Родрик Д. (2006) *Одной экономической модели для всех? Экономическая политика*. №3. С. 10–30.

Стиглиц Дж. (2004) *Глобализация и ее бедствия*. М.: Экономика. – 318 с.

Убайдуллаев А. (2023) *Международное финансовое сотрудничество Узбекистана: вызовы и возможности* // *Вопросы экономики и управления*. №2. С. 58–63.